

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA BAYRAM MAROSIMLARIGA OID TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi

3 - kurs 23.113 guruh talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>

E-mail: nozimaxon57@gmail.com

Annotatsiya *Ushbu maqolada o‘zbek va nemis tillarida bayram marosimlariga oid terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bayram terminlarining tarixiy, diniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangani, ularning xalq ongidagi madaniy va ramziy mazmuni o‘rganildi. O‘zbek tilida bayram marosimlari ko‘proq oilaviy qadriyatlar va diniy urf-odatlariga asoslangan bo‘lsa, nemis tilida diniy-madaniy qatlam va tarixiy merosning ta’siri kuchliroqdir. Globalizatsiya jarayonida esa umumjahon bayramlariga oid terminlarning ikkala til leksikasiga kirib kelishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: bayram terminlari, globalizatsiya, xalqaro bayramlar, tarixiy jarayon, madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik, ijtimoiy identitet, konseptual birliklar.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ, СВЯЗАННОЙ С ПРАЗДНИЧНЫМИ ОБРЯДАМИ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ формирования и развития терминологии, связанной с праздничными обрядами в узбекском и немецком языках. В ходе исследования выявлено, что праздничные термины формировались под влиянием исторических, религиозных и социальных факторов и отражают культурное и символическое содержание в сознании народа. В узбекском языке терминология праздников в большей степени основана на семейных ценностях и религиозных традициях, тогда как в немецком языке более заметна роль религиозно-культурного слоя и исторического наследия. В условиях глобализации наблюдается проникновение в оба языка терминов, связанных с общеизвестными праздниками. Полученные результаты имеют практическое значение в области лингвокультурологии, сравнительного языкознания и переводоведения.*

Ключевые слова: праздничные термины, глобализация, международные праздники, исторический процесс, межкультурная коммуникация, переводоведение, социальная идентичность, концептуальные единицы.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF TERMINOLOGY RELATED TO FESTIVE RITUALS IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the formation and development of terminology related to festive ceremonies in Uzbek and German languages. The study revealed that festive terms were shaped under the influence of historical, religious, and social factors, reflecting their cultural and symbolic meanings in the collective consciousness. In the Uzbek language, festive terminology is largely based on family values and religious traditions, while in German, the impact of religious-cultural layers and historical heritage is more significant. Under globalization, terms related to international holidays are increasingly integrated into both languages. The findings are of practical importance in the fields of linguoculturology, comparative linguistics, and translation studies.*

Keywords: *festive terms, globalization, international holidays, historical process, intercultural communication, translation studies, social identity, conceptual units.*

KIRISH

Til va madaniyat o‘zaro uzviy aloqada bo‘lib, har bir xalqning tarixiy-madaniy xotirasi uning tilida o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, bayram marosimlariga oid terminologiya xalqning ijtimoiy ongida shakllangan qadriyatlar, diniy qarashlar va hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli bayramlarga oid leksik birliklarni tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilida bayram terminologiyasi asosan oilaviy marosimlar, diniy urf-odatlar hamda qadimiy rasm-rusumlar asosida shakllangan. Bu birliklarda xalqning mehr-oqibat, birdamlik va farovonlik haqidagi tasavvurlari mujassam. Masalan, diniy bayramlarga oid terminlar (Ramazon hayiti, Qurbon hayiti) bilan bir qatorda, milliy an‘analarni ifodalovchi birliklar (Navro‘z, to‘y marosimlari) ham keng qo‘llanadi.

Nemis tilidagi bayram terminologiyasi esa tarixiy davrlar davomida xristianlik dini, xalqona urf-odatlar va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ta’sirida shakllangan. Bu jarayon natijasida “Weihnachten”, “Ostern”, “Silvester”, “Oktoberfest” kabi terminlar xalq madaniy xotirasi va diniy an‘analarini o‘zida mujassam etadi. Ularning ko‘pchiligi diniy ildizga ega bo‘lsa-da, zamonaviy davrda ular ko‘proq umumxalq bayrami va ijtimoiy birdamlik ramzi sifatida talqin qilinishini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bayram marosimlari terminologiyasining shakllanishi masalasi lingvistikada va madaniyatshunoslikda turli yondashuvlar asosida keng tadqiq etilgan.

A. Wierzbicka konseptlarning universal va madaniy jihatlarini tahlil qilib, millatlararo dunyoqarashdagi o‘xshashlik va farqliliklarni aniqlashga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab

chiqqan¹. U.Eco ramzlar va belgilar tizimini madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan sharhlab, marosim terminlarining semiosfera doirasida qanday o‘rin tutishini asoslagan². G.Lakoff esa kognitiv lingvistika asosida metaforik modellarni o‘rganib, marosimlar bilan bog‘liq atamalarining inson tafakkurida shakllanish mexanizmlarini ochib bergan³.

Nemis tilshunosligida ham ushbu yo‘nalishda qimmatli tadqiqotlar olib borilgan. R.Wodak ijtimoiy-lisoniy jarayonlarda terminlarning diskursiv funksiyalarini⁴, P. Berger esa marosim va diniy-madaniy qadriyatlarining til birliklarida qanday shakllanishini o‘rganib chiqqan⁵. Shuningdek, germaniyalik folklorshunos va kulturologlar xalq bayramlari tilga qanday kirib kelishi, ularning ramziy ma‘nolari va jamiyat ongidagi kommunikativ vazifalarini alohida yoritib berishgan. Bu nazariy ishlanmalar bayram terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy, semantik hamda lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganishga keng imkoniyat yaratadi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda bir qator yondashuvlardan foydalanildi. Masalan, tarixiy-lisoniy tahlil terminlarning shakllanish bosqichlari, ularning tarixiy davrlarda o‘zgarish jarayonini va jamiyatdagi o‘rni aniqlash.

Qiyosiy-kulturologik yondashuvga ko‘ra o‘zbek va nemis tillarida marosim atamalarining milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash.

Kognitiv-semantik tahlil bayram terminlarining ramziy, konseptual va metaforik qatlamlarini ochib berish, ular orqali xalq dunyoqarashini aniqlash.

Diskurs tahlili orqali marosim terminlarining matbuot, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridagi qo‘llanishini o‘rganish kabilar vazifalar sifatida qo‘yildi.

Mazkur metodlar yordamida o‘zbek va nemis xalqlarining bayram marosimlariga oid terminologiyasi keng qamrovda o‘rganildi. Natijada, terminlarning shakllanish jarayonida diniy va tarixiy omillar bilan bir qatorda, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek tilida bayram marosimlari terminologiyasining shakllanishi asosan xalq og‘zaki ijodi, diniy an‘analar va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Navro‘z, Hayit, To‘y, Sunnat to‘yi, Beshik to‘yi kabi terminlar qadimiy urf-odatlar va diniy e‘tiqodlar asosida shakllangan. Ushbu terminlar xalqning ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutib, oilaviy birlik, hamjihatlik va qadriyatlarni mustahkamlash vazifasini bajargan.

¹ Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, Japanese*. – New York: Oxford University Press, 1997. – 328 p.

² Eco U. *A Theory of Semiotics*. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.

³ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

⁴ Wodak R. *Language, Power and Ideology: Studies in Political Discourse*. – Amsterdam: John Benjamins, 1989. – 302 p.

⁵ Berger P. L., Luckmann T. *The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge*. – New York: Anchor Books, 1966. – 240 p.

Nemis tilidagi bayram marosimlari terminologiyasi esa ko‘proq diniy-madaniy davrlar bilan bog‘liq bo‘lib, xristianlik marosimlari asosiy o‘rin tutadi. Masalan, Weihnachten (Rojdestvo), Ostern (Pasxa), Neujahr (Yangi yil), Erntedankfest (Hosil bayrami) kabi atamalar tarixiy-diniy jarayonlarning natijasida shakllangan. Shuningdek, mahalliy an‘analarga bilan bog‘liq Karneval va Oktoberfest kabi terminlar nemis xalqining ijtimoiy-madaniy hayotida alohida o‘rin tutadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va nemis tillaridagi bayram terminologiyasi shakllanishida o‘xshash va farqli jihatlar mavjud.

O‘xshash jihatlar ikkala xalq ham bayram terminlarini diniy marosimlar, tabiat hodisalari (bahor, hosil), hamda ijtimoiy birlik va madaniy qadriyatlar bilan bog‘lagan.

Farqlarli jihatlar o‘zbek tilida terminlar ko‘proq oilaviy qadriyatlar va diniy an‘analarga tayanadi, nemis tilida esa tarixiy-diniy davrlar va ijtimoiy-madaniy jarayonlar asosiy manba bo‘lgan. Shuningdek, zamonaviy jarayonda globalizatsiya ta‘sirida har ikki tilda yangi terminlar shakllanmoqda. Masalan, **Valentine’s Day** yoki **Halloween** kabi terminlar nemis tilida keng qo‘llanilsa, o‘zbek tilida ham bu terminlar asta-sekin kirib kelmoqda va mahalliy madaniyatga moslashmoqda.

XULOSA

O‘zbek va nemis tillarida bayram marosimlari terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi ikki xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, diniy qarashlari va tarixiy jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekani tadqiqot davomida yaqqol ko‘rinib chiqdi. Har ikki xalqning tilida shakllangan marosim terminlari ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy xotirasining muhim ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, o‘zbek tilida bayram marosimlariga oid terminlar asosan oilaviy qadriyatlar, diniy urf-odatlar va milliy rasm-rusumlar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, “Navro‘z”, “Ro‘za hayiti” kabi terminlar xalqning qadimiy an‘analari, diniy dunyoqarashi va ijtimoiy hayoti bilan uzviy aloqada shakllangan.

Ikkinchidan, nemis tilida bayram terminologiyasining rivojlanishida xristianlik marosimlari, diniy an‘analarga hamda tarixiy bosqichlarning ta‘siri kuchliroqdir. “Weihnachten”, “Ostern”, “Silvester” kabi terminlar diniy marosim va tarixiy xotiraning til birligi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, umumiy jihat sifatida, ikkala xalqning tilida ham bayram terminologiyasi birlik, hamjihatlik, quvonch va kelajakka umid ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Tabiat hodisalari, fasllar almashinuvi va insoniy qadriyatlar bilan bog‘liq marosimlar til birliklari orqali xalqning ma‘naviy dunyosini ifodalaydi.

To‘rtinchidan, farqli jihatlar shundan iboratki, o‘zbek tilida bayram marosimlari ko‘proq oilaviy va jamiyatning kundalik hayotiga yaqin qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis tilida esa diniy-madaniy qatlam va tarixiy jarayonlarning ta‘siri sezilarli darajada kuchliroqdir.

Beshinchidan, globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar natijasida zamonaviy terminologiyada umumjahon bayramlari bilan bog‘liq atamalar masalan, *Halloween*,

Valentine’s Day, Mother’s Day har ikki til leksikasiga kirib kelib, yangi madaniy ma’nolarni shakllantirmoqda.

Asosan o‘zbek va nemis xalqlarining bayram terminologiyasi nafaqat tilning lug‘at boyligini kengaytiruvchi unsur, balki ularning madaniy merosi, milliy xotirasi va identitetining muhim ifodasi sifatida ham e’tirof etiladi. Ushbu tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida yangi izlanishlarga zamin yaratadi hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga katta yordam bera oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997. – 328 p.
2. Eco U. A Theory of Semiotics. – Bloomington: Indiana University Press, 1976. – 354 p.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. – 242 p⁶.
4. Wodak R. Language, Power and Ideology: Studies in Political Discourse. – Amsterdam: John Benjamins, 1989. – 302 p.
5. Berger P. L., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. – New York: Anchor Books, 1966. – 240 p.
6. Lotman Yu. M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. – London: I.B. Tauris, 1990. – 272 p.
7. Eliade M. The Sacred and the Profane: The Nature of Religion. – New York: Harcourt, 1959. – 256 p.
8. Apresyan Yu. D. Integralnoye opisaniye yazyka i sistemnaya leksikografiya. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1995. – 447 s.
9. Arutyunova N. D. Logika i grammatika. – M.: Nauka, 1979. – 388 s.
10. Schmid K. Volkskunde als historische Kulturwissenschaft. – München: Oldenbourg Verlag, 1996. – 276 S.
11. Bausinger H. Volkskultur in der technischen Welt. – Stuttgart: Kohlhammer, 1961. – 214 S.
12. Mudrik A.V. Sotsializatsiya cheloveka: Ucheb. posobie dlya studentov vyssh. ucheb. zavedeniy. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Akademiya, 2006. – 304 s.